



LEKSIKOLOGIYA HAMDA UNI O'QITISHGA DOIR O'QUV MATERIALLARI MAZMUNI HAMDA O'QUVCHILARDA LEKSIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH HAMDA SO'ZDAN FOYDALANA OLISHNING MAVJUD AHVOLI

Odiljonova K.A.

Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: kompetensiya, til sathlari, pedagogika, texnologiya, nazariya, metodika, oʻquv materiallari.

Ключевые слова: компетентность, языковые уровни, педагогика, технология, теория, методика, учебные материалы.

Key words: competence, language levels, pedagogy, technology, theory, methodology, educational materials.

Kirish. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standartida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: kompetensiya – mavjud bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik faoliyatda qoʻllay olish qobiliyatidir, yaʼni kompetensiya bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega boʻlgan shaxs tavsifi boʻlib, u taʼlim oluvchi tomonidan alohida bilim va koʻnikmalarni emas, balki har bir mustaqil yoʻnalish boʻyicha integrallashgan bilimlar va sifatlarining oʻzlashtirilishini nazarda tutadi. Biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi. Bilim, koʻnikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qoʻllay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan Davlat taʼlim standartida har bir fan boʻyicha belgilangan taʼlim mazmuni asosida oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar qayd etilgan. Bu kompetensiyalar oʻquv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat boʻlib, taʼlimning barcha turlarida oʻquv materiallarining uzviyligi va uzluksizligini taʼminlashni talab etadi.[1] Masalan, ona tili fani mazmunida



asosiy diqqat-e'tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu lingvistik bilimlar vositasida o'quvchilarning kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og'zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlari nazarda tutilgan. Mazkur kompetensiyalar boshlang'ich ta'limdan boshlab, bosqichma-bosqich uzluksizlikda rivojlantirib boriladi.

Davlat ta'lim standartida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikma va malakalar belgilangan. Bunda o'rganilayotgan o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan keng va o'rinli foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy ma'lumotlar berish, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o'zlashtirish, muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarni yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazalarini bayon eta olish imkoniyatlaridan samarali foydalanish talab etiladi, zero ona tili bo'yicha kompetentli shaxs deganda: mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi.

Taniqli tilshunos, professor A.Nurmonovning fikricha, kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi. O'quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir[2]. So'zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo'ladigan bilimga yetarli ega bo'lmasa, uning lingvistik kompetensiyaga to'liq ega emasligi sezilib qoladi. Tilning nazariy jihatlari, qonun-qoidalari ta'lim jarayonida o'rgatiladi va natijada o'quvchilarda til haqidagi bilimlar majmuasi yaratiladi. Til sathlari, tilning qurilishi va funksiyalari haqidagi bilim, ko'nikmalar va ulardan turli vaziyatlarda o'rinli foydalanish mahoratiga lingvistik kompetensiya deb qaraladi, ya'ni til vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llay olish tajribasiga ega bo'lgan hislatlar tushuniladi. Buni yanada soddaroq qilib til bilimining yetukligi desa ham bo'ladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish ko'nikmasi va malakasi bo'lib, muayyan izchillikda qo'llash natijasida takomillashib boradi.

Tilshunos olim, filologiya fanlari doktori N.Uluqov fikricha, lingvistik kompetentlik quyidagilardan tarkib topadi:

- 1) o‘z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo‘nda ifodalay olish;
- 2) adabiy tilda so‘zlash;
- 3) imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish;
- 4) davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish;
- 5) xorijiy tillarni bilish va hokazo.[3]

Demak, lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatlardan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o‘zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo‘limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma‘no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Atrof-muhitni anglash, bo‘layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda, o‘zining mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensiyaning mazmun-mundarijasini belgilaydi.[4]

Lingvistik kompetentlikni shakllantirish kommunikativ kompetentlik bilan birga yetakchi maqsadlardan biri bo‘lib, maktab o‘quvchilarining til (lingvistik) va nutq rivojlanishining birligini ta‘minlaydi, u til kompetensiyasi rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi, chunki uning rivojlanish darajasi o‘quvchilarning nutqini rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.[5] Nutq esa kishining tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, nutqning rivojlanishi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega. S.I.Galperinning fikriga ko‘ra o‘quvchi nutqi tafakkur qilish jarayonida shakllanadi.[6] Tafakkur esa uning atrofidagi odamlar bilan nutq orqali muloqot qilganda rivojlanadi. D.Xudoyberganova ham nutq yaratilishi haqidagi nazariyada til va tafakkur munosabati o‘ta dolzarb muammolardan biri hisoblanishi, nutq yaratilishi jarayonining tafakkur bilan aloqasi psixolingvistikada “nutq yaratilishi modeli” deb nomlanuvchi sxemalarda aks ettirilishni ta‘kidlaydi. Bu modellarning deyarli barchasida L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “Fikrdan ma‘noga – ma‘nodan so‘zga” degan konsepsiya o‘z aksini topganligini aytib o‘tadi. S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin ham ta‘lim jarayonining muhim shartlaridan biri sifatida ta‘lim oluvchilarda tafakkurning rivojlanishi ekanligini ta‘kidlaydilar. Shu sababdan ham nutqqa qo‘yilayotgan talab azaldan ta‘lim-tarbiya tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘quvchining nutqi va tafakkurini o‘stirish barcha fanlarga dahldor bo‘lsa



ham, uning mas'uliyati, asosan, ona tili fani zimmasidadir. Shuning uchun jamiyat ona tili ta'limi oldiga o'quvchi shaxsida fikrlash, o'zgarar fikrini anglash va fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya'ni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo'yadi.[7]

Bugungi tilshunoslik oldiga qo'yiladigan talab ham tilni uni tashkil etuvchilari va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish asosida emas, balki til egalari xotirasidagi lisoniy bilimlarning muloqot jarayonida aktuallashish xususiyatlarini, ya'ni lisoniy kompetensiya va uning nutqiy ifodasi munosabatini o'rganish asosida tadqiq etishdir. Hozirgi o'zbek tilshunosligining bugungi muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til faktlarining muloqot jarayonidagi tatbiqining (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini o'rganishdir. Odatda, har bir xalqning madaniyatlik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, o'qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so'zlarni qanchalik to'g'ri yoza olish va o'z o'rnida qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishida ko'rinadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, har qanday tilni o'rgatish va o'rganishda leksik kompetensiyani shakllantirish jarayoni katta qiziqish hamda ahamiyat kasb etib qo'shimcha izlanishlarni talab qiladi. Leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan bo'lib, muloqot qilish uchun mavzular, nutq harakatlarida suhbatdoshlarning ijtimoiy va kommunikativ roli, mavzu turlari va ularni tuzish uchun zarur lingvistik elementlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Leksik kompetensiya so'z ma'nosining tuzilishini aniqlay olish, so'zdagi ma'noni anglay olish va leksik bilimlar, malakalar, ko'nikmalarga asoslangan bilimlar nazarda tutiladi. Shuningdek Y.N.Solovovaning fikricha "Leksik kompetensiya bu leksik elementlarni o'zida jamlagan tilning lug'at tarkibini bilish va uni nutqda ishlata olish qobiliyatidir. Leksik kompetensiyani yetarli darajada o'zlashtirish nutq faoliyatining barcha turlarida ijobiy samara beradi.

Leksik birlikni o'zlashtirish bir necha bo'limlardan tashkil topadi:

- a) eshitganda leksik birlikni tushunish va uni talaffuz eta olish;
- b) leksik birlikni yozuv shaklini bilish va uni yoza olish;
- v) leksik birlikni morfologiyasini to'g'ri ifodalay bilish;
- g) leksik birlikni bir necha ma'nolarini bilish va kontekstga moslab to'g'ri ishlata olish;
- d) grammatik kategoriyasini bilish;
- y) leksik birlikni sintaktik tuza olishini bilish;
- j) leksik birlikni ma'no (sinonimlar, omonimlar) jihatdan ishlata olish;

- z) leksik birliklarni birikmalarda ishlata olish;
- i) tez-tez ishlatilish sohasini bilish;
- k) leksik birlik qanday madaniy axborotni yetkaza olayotganligini bilish;
- l) boshqa tillarda uning ekvivalentlarini bilish.

Leksik kompetensiya – soʻzlarning leksik maʼnolarini anglatuvchi, ularning shakllanish qonuniyatlarini keng doirada birlashtirgan, leksikologiya boʻlimiga kiritilgan til tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, leksikologiya boʻyicha olingan bilim, koʻnikma, malakalarni qoʻllash qobiliyatidir.

Oʻquvchilarda leksik kompetensiyalarni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bosqichlari:

Birinchi bosqich– muloqot va oʻz-oʻzini ifoda etishga tayyorlik hamda hamkorlikka ehtiyoj hisoblanadi. Ushbu bosqichda leksik kompetensiyalarga yoʻnaltirilgan shaxsiy tajribani, ehtiyojni, qoidalarni tushunish amalga oshiriladi. Til tizimining birliklari, maʼnolarini ongli ravishda oʻrgatish masalasiga alohida eʼtibor qaratiladi.

Ikkinchi bosqich – faoliyatli rivojlantiruvchi bosqich boʻlib, u oʻquvchilarni oʻquv va leksik kompetensiyalarni egallashga asoslangan. Faoliyat–insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo boʻladigan va tashqi olam bilan kishining oʻz-oʻzini bilishga, uni qayta koʻrishga yoʻnaltirilgan faolligidir. Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli oʻquvchilarda nazariy bilimlarni amalda qoʻllay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Zero amaliyotga tadbiq etilmagan bilimlar tez xotiradan koʻtariladi.

Uchinchi bosqich – ijodiy bosqich boʻlib, birgalikda guruhli ishlash sharoitida oʻquvchilarda faollikni taʼminlab, zamonaviy texnologiyalar asosida nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllay olishlariga yoʻnaltirilgan.

Yuqorida izohlangan bosqichlarda 6-,7-sinf oʻquvchilarida leksik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali faollashtirish hisobga olinadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida oʻquvchilarda leksik kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlarni yaratishda taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchining oʻzaro munosabati inobatga olinadi. Pedagogik shart-sharoitlarning inobatga olinishi oʻquvchilarni mustaqil va individual faoliyatga yoʻnaltirishga imkon beradi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar tahlili, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosida tajribalarni oʻrganish, oʻquvchilarida leksik kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar eʼtiborga olinganda samarali boʻladi :



- o‘quvchilarda leksik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish;
- leksik kompetensiyalarni rivojlantirishda va aniqlashda nutqning yozma shaklidan o‘rinli va unumli foydalanish;
- o‘quvchilarda leksik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning turli ko‘rinishlarini tashkil etish;
- zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish vositalari (elektron ta’lim resurslari (AKT) amaliy o‘quv qo‘llanmalar va boshqalar)dan foydalanish orqali leksik kompetensiyalarni shakllantirish uchun mo‘ljallangan o‘quv jarayonining uslubiy ta’minotini takomillashtirish;
- zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘quvchilarda shakllangan leksik kompetensiyalarni amaliyotda qo‘llashni ta’minlovchi nutqiy vaziyatlarni yaratish.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

o‘quvchining individual xususiyatlari hamda qiziqishlariga mos ravishda ularda leksik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyalarini aniqlash;

har bir o‘quvchining ta’limiy ehtiyojlariga mos bo‘lgan, uning individual rivojlanishi, ongli ravishda nutq vaziyatida leksik bilimlaridan foydalanishini o‘rgatishning optimal yo‘llarini tanlash;

o‘quvchilarda leksik kompetensiyalarni shakllanganligini baholash yoki ularning erishgan natijalarini nazorat qilib borishning samarali yo‘llarini belgilash;

o‘quvchilarning leksikologiya bo‘yicha olgan bilimlarini ongli ravishda o‘zlashtirilishiga yordam beruvchi samarali usullarini qo‘llash.

Demak, leksik kompetentlikni rivojlantirishda o‘quvchilarning aqliy va shaxsiy rivojlanishini inobatga olish, o‘quvchilarning bilish mustaqilligini shakllantirishga qaratilgan o‘qitish metodlarini takomillashtirish va uni amalga oshirish shart-sharoitlari alohida e’tiborga olinishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Muxiddinova X. DTS: Salohiyatli kadr tayyorlash sari...//Til va adabiyot ta’limi, 2017, 7-son, – B. 8.
2. Nurmonov A., Ziyodullayeva G. O‘quvchilarning til kompetentligi shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma’rifat” gazetasi, 2014 yil 18 iyul.
3. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari // Til va adabiyot ta’limi, 2018, № 6. – B. 16.



4. Sayaxova L.G. Metodologiya i metodicheskaya sistema formirovaniya lingvokulturologicheskoy kompetensii tyurkoyazychnyx uchashixsya na urokax russkogo yazyka. – Ufa: RITS BashGU, 2010. – 294 s

5. Elkonin D. B. Izbranniye psixologicheskiye trudi. – M.: Pedagogika, 1989. – 560 s.

6. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent.: 2015. – B. 31

7. Nabiyeva D. Xolmatova G. Zamonaviy tilshunoslikning muammolari // Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016, – B. 46.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada dunyo til ta'limi nazariyasida lingvistik kompetensiyalar sirasida so'z turkumlari tasnifi, so'zning leksik va grammatik ma'nolari, morfologik shakllari, kategoriyalariga doir yuksak bilim, malaka va ko'nikmalar majmuyi bo'lgan leksik kompetensiyaning muhim ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatga egaligi, leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mavjud ahvoli e'tirof etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье среди лингвистических компетенций в теории мирового языкового образования лексическая компетентность представляет собой важное научно-теоретическое исследование лексической компетенции, которая представляет собой совокупность высоких знаний, умений и навыков, связанных с классификацией групп слов, лексическими и грамматическими значения, морфологические формы и категории слов., ее практическое значение, содержание лексикологии и ее учебных материалов, а также современное состояние формирования лексической компетентности и умения употреблять слова у учащихся.

SUMMARY

In this article, among linguistic competences in the theory of world language education, lexical competence is an important scientific-theoretical study of lexical competence, which is a set of high knowledge, skills and skills related to the classification of word groups, lexical and grammatical meanings, morphological forms and categories of words. , its practical importance, the content of lexicology and its teaching materials, as well as the current state of formation of lexical competence and the ability to use words among students.